



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “20” noyabr

BUYRUQ № 193

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114- son qaroriga muvofiq, milliy statistika tizimiga sifatni boshqarishning ilg‘or tizimlarini joriy etish hamda iste‘mol narxlari statistikasini shakllantirish bo‘yicha statistika uslubiyotini yanada takomillashtirish maqsadida,
BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 20- maydagi 106- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tovarlar va xizmatlarning iste‘mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste‘mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” (keyingi o‘rinlarda – Uslubiy nizom)ga ilovaga muvofiq qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq tasdiqlagan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil "20" noyabr dagi
193-son buyrug'iga
ILOVA

**Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini
tashkil etish hamda iste'mol narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy
nizomga kiritilayotgan qo'shimchalar**

1. Uslubiy nizomning 40- bandi quyidagi tahrirda ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“O'lchash tizimlarini shakllantirish Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga 5-ilovada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.”;

2. Uslubiy nizomning 72- bandi quyidagi tahrirda beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari (ichki foydalanuvchilar) uchun narxlar indeksi to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan reja-jadval asosida taqdim etiladi.”;

3. Uslubiy nizom quyidagi tahrirda 5-ilova bilan to'ldirilsin:

““Tovarlar va xizmatlarning
iste'mol narxlari (tariflari)
kuzatuvini tashkil etish hamda
indekslarni hisoblash bo'yicha
uslubiy nizom”ga
5-ilova

Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari indeksini (INI) hisoblash va e'lon qilish mexanizmi

Bosqichlar	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ullar
I bosqich	Tovarlar va xizmatlarning vaznlar tuzilmasini shakllantirish	1. Vaznlar tuzilmasini shakllantirish uchun uy xo'jaliklari kuzatuvlari ma'lumotlari asosida iste'mol xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish; 2. Iste'mol xarajatlari to'g'risida shakllantirilgan ma'lumotlarni Narxlar statistikasi boshqarmasiga taqdim etish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda ma'lumotlar tayyor bo'lganidan so'ng bir kun muddatda	Aholi turmush darajasi va kuzatuvlari statistikasi boshqarmasi
II bosqich	INI hisoblash uchun birlamchi ma'lumotlarni to'plash	1. Savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari tanlanmasi bo'yicha narx kuzatuvlarini tashkil etish va ma'lumotlarni planshet qurilmasiga qayd etish; 2. Muqobil axborot manbaalaridan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash.	har oyning 10-20 sanalari har oyning 10-20 sanalari	Hududiy statistika bo'limlari Narxlar statistikasi boshqarmasi
III bosqich	INI shakllantirish	1. To'plangan birlamchi ma'lumotlarni Stata dasturida umumlashtirish, qayta ishlash va tahlil qilish; 2. INI bo'yicha yakuniy ma'lumotlarni shakllantirish va e'lon qilish.	har oyning 10-25 sanalari Statistika dasturida belgilangan muddatlarda	Narxlar statistikasi boshqarmasi, Hududiy statistika boshqarmalari
IV bosqich	Yakuniy ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish	1. INI to'g'risida press-reliz e'lon qilish; 2. SIAT axborot tizimida yakuniy jadvallarni e'lon qilish orqali foydalanuvchilarga yetkazish; 3. Agentlikning ichki foydalanuvchilariga narx indekslari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda Reja-jadvalga asosan	Narxlar statistikasi boshqarmasi